



Kirish

Zamonaviy davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyatining institutlari demokratik islohotlarning barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy nazoratni kuchaytirish va mahalliy boshqaruv sifatini oshirishda strategik omil sifatida e'tirof etiladi. Yangi ijtimoiy boshqaruv konsepsiyasida “kooperativ boshqaruv” (collaborative governance) modeli hamkorlik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari orqali mahalliy hokimiyat bilan nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), jamoat birlashmalari va tashabbuskor fuqarolar o'rtasida barqaror muloqotni taqozo etadi. Fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ijtimoiy kontrakt, subsidiarlik va ochiq boshqaruv nazariyalari nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Ushbu nazariyalar boshqaruvni markazdan mahalliy darajaga delegatsiya qilish, qaror qabul qilish jarayonida manfaatdor tomonlar ishtirokini kengaytirish, hisobdorlikni oshirish kabi printsiplarni ilgari suradi.

Xalqaro tajribalarni integratsiya qilib ularni amalda sinab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shvetsiya: kommunal kengashlar va NNT o'rtasidagi “hamkorlik shartnomalari” asosida ijtimoiy xizmatlar, ekologik loyihalar hamkorlikda amalga oshiriladi; davlat budgeti doirasida grantlar ochiq tender orqali taqsimlanadi. Janubiy Koreya: “Fuqarolik byudjeti” instituti orqali aholining mahalliy byudjet shakllanishida ishtiroki qonunan kafolatlangan, natijada loyihalarning ijtimoiy legitimatsiyasi oshadi. Polsha: “Mahalliy rivojlanish bo'yicha maslahat kengashlari” orqali NNT va hokimiyat o'rtasida qarorlar kelishilgan holda qabul qilinadi, bu esa ijtimoiy ishonch darajasini oshirgan.

Mahalliy holatga nazar tashlaydigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda “Ochiq budjet”, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonun,

Botirova Ozoda Baxodir qizi



“Mahalla” institutini rivojlantirish strategiyasi kabi huquqiy asoslar yaratildi. Aholi bilan muloqotning yangi mexanizmlari – “Xalq qabulxonalari”, “Mening fikrim” portali – jamoatchilik ishtirokini kengaytirish imkonini bermoqda. Biroq axborot shaffofligi darajasi hududlar kesimida notejis jarayonda. NNTlar uchun grant va subsidiya tizimining barqarorligi yetarlicha institutsional emas. Fuqarolarni qaror qabul qilish jarayoniga muntazam jalg etish bo'yicha metodik baza kuchaytirilishi lozim.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, hokimiyat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi samarali hamkorlik uchun huquqiy kafolat, moliyaviy barqarorlik va tashkiliy mustaqillik asosiy shartdir. Kooperativ boshqaruv modeli “vertikal” buyruqbozlikni kamaytirib, “gorizontal” hamkorlikni kuchaytiradi. Mahalliy rivojlanish jarayonlarida jamoatchilikning faol ishtiroki ijtimoiy kapitalni oshiradi, qarorlar legitimatsiyasini mustahkamlaydi.

Shu o'rinda taklif va mulohazalarimizni keltirib o'tamiz har bir tuman/shaharda “Jamoatchilik hamkorlik kengashi” institutsional ravishda mustahkamlanib, hokimiyat qarorlarini oldindan muhokama qiluvchi platformaga aylantirilishi lozim. Fuqarolik byudjeti amaliyotini bosqichma-bosqich barcha hududlarga joriy etish samara ko'rsatadigan usul. NNT va mahalla fuqarolar yig'inlari uchun davlat granti, imtiyozli kredit va soliq preferensiyalarini kengaytirish bir qancha yengilliklar beradi. Ochiq ma'lumotlar portalida qaror loyihalari, hududiy rivojlanish dasturlari bo'yicha onlayn jamoatchilik muhokamasi mexanizmlarini kuchaytirish ham foydadan holi emas.

Fuqarolik jamiyati va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi hamkorlikni institutsional darajada kuchaytirish demokratik boshqaruv samaradorligini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda aholining davlatga bo'lgan ishonchini yuksaltirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ochiq budget” tizimini yanada rivojlantirish to'g'risidagi PQ-6070-sod Qarori, 2020-yil 10-oktabr.



2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun, 2018-yil 12-aprel.
3. Ansell, C., & Gash, A. (2008). Collaborative Governance in Theory and Practice. *Journal of Public Administration Research and Theory*, 18(4), 543–571.
4. Bovaird, T., & Löffler, E. (2016). *Public Management and Governance*. Routledge.
5. UNDP Uzbekistan. *Open Government and Civic Engagement in Uzbekistan*. Tashkent, 2023.
6. OECD. *Open Government: The Global Context and the Way Forward*. Paris, 2017.
7. World Bank. *Enhancing Citizen Engagement in Local Governance*. Washington, 2021.
8. Саъдиев, Ш. “Mahalliy boshqaruv tizimida jamoatchilik ishtirokini kengaytirishning dolzarb masalalari.” *Ijtimoiy fanlar jurnali*, №2, 2022.
9. Shvetsova, N. (2022). Fuqarolik jamiyati institutlari va davlat o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari. *Iqtisodiyot va boshqaruv*, 4, 56–64.